O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

ERTAPISHAR VA OZIQ OVQAT UCHUN MO‘LJALLANGAN KARTOSHKANI SOTISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #QPJ54QEYU4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV-52:2017 “STANDARD CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF EARLY AND WARE POTATOES” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #QPJ54QEYU4 - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

ESLATMA

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIEK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulot yetishtirishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YIEK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng spektrini, jumladan, yangi uzilgan ho‘l meva va sabzavotlar, quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a‘zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida qo‘shimcha ma‘lumot olish uchun bizning veb-saytimizga tashrif buyuring: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html

Ertapishar va kechpishar kartoshkaga oid ushbu qayta ko‘rib chiqilgan standart Ishchi guruhning oltmish ettinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/TRADE/C/WP.7/2011/8 hujjati asosida tayyorlangan.

Ushbu nashrda qo‘llanilgan atamalar materiallarning taqdim etilishi BMT Kotibiyati tomonidan har qanday mamlakat, hudud, shahar yoki viloyatning, yoxud ularning hokimiyat organlarining huquqiy maqomi, shuningdek, ularning chegaralari yoki hududiy daxlsizligini belgilash borasida biron-bir fikr bildirilishini anglatmaydi. Kompaniya nomlari yoki tijorat mahsulotlarining eslatib o‘tilishi BMT tomonidan ularni qo‘llab-quvvatlash yoki ma‘qullashni bildirmaydi.

Barcha materiallardan erkin foydalanish yoki ularni qayta chop etish mumkin, biroq asl manbaga havola ko‘rsatilishi talab etiladi.

Har qanday sharhlar yoki so‘rovlar yuzasidan quyidagi manzil bo‘yicha biz bilan bog‘lanishingizni so‘raymiz:

Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘limi
Iqtisodiy hamkorlik va savdo divizioni
Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi
Palais des Nations
CH-1211 Jeneva 10, Shvetsariya
Elektron pochta: agristandards@un.org

STANDARTLAR INSTITUTI #QPJ54QEYU4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

ERTAPISHAR VA OZIQ OVQAT UCHUN MO‘LJALLANGAN KARTOSHKANI SOTISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ, ПО КОНТРОЛЮ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА И СБЫТУ РАННЕГО И ПОЗДНЕГО КАРТОФЕЛЯ

STANDARD CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF EARLY AND WARE POTATOES

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026

I. Mahsulotni aniqlash

Ushbu standart Solanum tuberosum L. turi va uning duragaylaridan (gibridlaridan) yetishtirilgan hamda iste’molchiga yangi uzilgan holda yetkazib berilishi mo‘ljallangan ertapishar va oziq ovqat uchun mo’ljallangan kartoshkaga nisbatan qo‘llaniladi. Sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan ertapishar va oziq ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar bundan mustasno.

Ertapishar kartoshka — ertapishar navlardan olinadi yoki yetishtirilgan mamlakatda mavsum boshida yeg’ib olinadi. Ertapishar kartoshka deganda to‘liq pishib yetilmasdan oldin yeg’ib olingan, yig‘im-terimdan so‘ng darhol sotuvga chiqariladigan va po‘stlog‘ini pichoq bilan archmasdan, osongina shilib olish mumkin bo‘lgan kartoshka tushuniladi.

II. Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi — tayyorlash va qadoqlash jarayonlaridan keyin ertapishar va oziq ovqat uchun mo’ljallangan kartoshkaga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdir.

Biroq, mahsulot eksport qilinganidan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

- yangiligi va turgori biroz pasaygan bo’lishi;
- mahsulotning tabiiy rivojlanishi va tez buzilishga moyilligi sababli sifati biroz yomonlashishi.

Mahsulotni sotuvchi shaxs ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni har qanday boshqa usulda namoyish qilishi, sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoki savdoga chiqarishi mumkin emas. Mahsulotga egalik qiluvchi shaxs ushbu talablarga muvofiqlikni ta’minlash uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

(a) Ruxsat etilgan chetlanishlarni hisobga olgan holda, kartoshka tugunaklari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- yetishtirilgan hududiga xos bo‘lgan, ushbu nav uchun normal tashqi ko‘rinishga ega bo‘lishi;
- butun bo’lishi,ya’ni biron qismi olib tashlanmagan va butunligini buzadigan shikastlanishlarga ega bo’lmasligi;
- sog‘lom bo‘lishi; iste’mol uchun yaroqsiz holga keltiruvchi chirish yoki buzilish alomatlari bo‘lgan mahsulotlarga yo’lqo’yilmaydi ;
- deyarli toza bo‘lishi;
- qattiq bo‘lishi;

STANDARTLAR INSTITUTI #QPJ54QEYU4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

•mahsulotning umumiy tovar ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga hamda qadoqdagi taqdimotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tashqi yoki ichki nuqsonlardan xoli bo‘lishi, jumladan:

• yuqori harorat ta’sirida paydo bo‘lgan jigarrang dog‘lar;

• chuqurligi 4 mm dan oshadigan yoriqlar (shu jumladan, o‘sish davridagi yoriqlar), kesiklar, hasharotlar yoki kemiruvchilar tishlagan joylar, lat yeyishlar yoki g‘adir-budirliklar (faqat po‘stlog‘i odatda g‘adir-budir bo‘lmagan navlar uchun) bo‘lmasligi lozim

• yashil rangga kirgan joylari bo‘lmasligi; bunda sirt maydonining sakkizdan bir qismidan oshmaydigan va oddiy tozalash bilan olib tashlanishi mumkin bo‘lgan och yashil tusdagi dog‘lar nuqson hisoblanmaydi

`• shaklning keskin buzilishlari bo‘lmasligi;

• po‘st ostida kulrang, ko‘k yoki qora dog‘lar bo‘lmasligi; kechpishar kartoshkalarda bu dog‘larning chuqurligi 5 mm dan oshmasligi lozim;

• zang dog‘lari, kovak, qora o‘zak va boshqa ichki nuqsonlar bo‘lmasligi;

• oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalarda chuqurligi 2 mm va undan ortiq bo‘lgan chuqur oddiy qoraqo’tir va kukunsimon qoraqo’tir kasalliklari bo‘lmasligi

• yuzaki oddiy qoraqo’tir bo‘lmasligi; ya’ni jami qoraqo’tir dog‘lari kartoshka tugunining umumiy yuzasidan to‘rtdan bir qismidan ko‘pini egallamasligi kerak

• sovuq urish va muzlash asoratlari bo‘lmasligi;

• ortiqcha tashqi namlikdan xoli bo‘lishi, ya’ni agar kartoshka yuvilgan bo‘lsa, u yetarli darajada quritilgan bo‘lishi kerak;

• har qanday yot hid va ta’mdan xoli bo‘lishi lozim.

Ertapishar kartoshkalarda po‘stloqning qisman shilingan bo‘lishi nuqson hisoblanmaydi. Kechpishar kartoshkalar esa to‘liq shakllangan po‘stloq bilan qoplangan bo‘lishi kerak, ya’ni po‘st to‘liq yetilgan, pishgan bo‘lishi va kartoshka tugunakning butun yuzasini qoplashi kerak.

Ertapishar kartoshkalarda nish otishga mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi Oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar amalda nish otmagan bo‘lishi kerak, ya’ni nishlar uzunligi 3 mm dan oshmasligi kerak.

Ertapishar va kechpishar kartoshkaning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi lozim:

• tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;

• belgilangan manzildagi qabul qilish joyiga qoniqarli holatda yetib borishi.

(b) Har bir qadoq yoki mahsulot to’p chiqindilardan xoli bo‘lishi kerak, ya’ni unda yopishgan yoki to‘kilib yotgan tuproq, uzilib tushgan nihollar va boshqa yot aralashmalar bo‘lmasligi lozim.

III. O‘lchamlarga oid qoidalar

Kartoshka tugunaklarining o‘lchami kvadrat teshikli elak yordamida aniqlanadi.
tugunaklar quyidagi o’lchamlarga muvofiq bo’lishi kerak

• minimal o’lchami quyidagi kvadrat teshikli elakdan o‘tib ketmasligi kerak:

• erta pishar kartoshkalar uchun: 28 mm x 28 mm

• oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar uchun: 35 mm x 35 mm

• quyida keltirilgan uzunchoq navli oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar uchun: 30 mm x 30 mm

STANDARTLAR INSTITUTI #QPJ54QEYU4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• kartoshka tugunaklarining maksimal o‘lchami shunday bo‘lishi kerakki, ular:kvadrat teshikli ko‘zli 80 mm x 80 mm o‘lchamdagi elakdan, uzunchoq navlar esa 75 mm x 75 mm o‘lchamdagi elakdan o‘tishi kerak.

Belgilangan maksimal o‘lchamdan katta bo‘lgan erta pishar va oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalarga faqatgina quyidagi shartlar asosida ruxsat beriladi:

Eng kichik kartoshka tugunaklari va eng yirik kartoshka tugunaklari o‘rtasidagi o‘lcham farqi 30 mm dan oshmasligi hamda ular maxsus nav guruhi ostida sotuvga chiqarilishi lozim.

O‘lchami 18 mm dan 35 mm gacha bo‘lgan kartoshka tugunaklari mayda kartoshka yoki shunga tenglashtirilgan boshqa nom ostida sotuvga chiqarilishi mumkin.

O‘lcham bo‘yicha ajratish majburiy emas. Biroq, sof vazni 5 kg gacha bo‘lgan iste’mol qadoqlarida eng kichik va eng yirik kartoshka tugunnaklari o‘rtasidagi ruxsat etilgan maksimal farq 30 mm dan oshmasligi kerak.

Agar nav u yetishtirilgan mamlakatning milliy navlar reestrida "uzunchoq" yoki "uzunchoq-oval" deb ro‘yxatga olingan bo‘lsa, u uzunchoq nav hisoblanadi.

O‘lchamlarga oid talablar notekis shaklli uzunchoq navlarga (masalan: Stella, Ratte yoki Pink Fir Apple navlari) nisbatan qo‘llanilmaydi.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Savdoning barcha bosqichlarida, har bir turkum partiya mahsulot tarkibida minimal talablarga javob bermaydigan mahsulotlar uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlarga yo‘l qo‘yiladi.

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

(a) Minimal talablarga javob bermaydigan kartoshka tugunaklari uchun quyidagi miqdorlarda ruxsat etiladi:

• Erta pishar kartoshkalar uchun: og‘irlik nisbatiga ko‘ra 4 foiz

• oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar uchun: og‘irlik nisbatiga ko‘ra 6 foiz

Biroq, ushbu ruxsat etilgan chetlanishlar doirasida quruq yoki ho‘l chirish bilan kasallangan kartoshka tugunaklarining maksimal miqdori og‘irlik nisbatiga ko‘ra 1 foizdan oshmasligiga ruxsat etiladi.

(b) Bundan tashqari, quyidagilarga ruxsat etiladi:

• Erta pishar kartoshkalar uchun: og‘irlik nisbatiga ko‘ra 1 foiz chiqindi

• Oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar uchun: og‘irlik nisbatiga ko‘ra 2 foiz chiqindi, buning ichida yopishib qolgan tuproq miqdori maksimal 1 foizdan oshmasligi kerak.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

STANDARTLAR INSTITUTI #QPJ54QEYU4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘lchamlarga oid talablarga javob bermaydigan kartoshka tugunaklari uchun og‘irlik nisbatiga ko‘ra jami 10 foizgacha ruxsat etilgan chetlanishga yo‘l qo‘yiladi.

C. Boshqa navlar bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

To’p tarkibida boshqa navlarga mansub kartoshka tugunaklarining bo‘lishiga og‘irlik nisbatiga ko‘ra 2 foizgacha ruxsat etiladi.

V. Tovar ko‘rinishini shakllantirish bo‘yicha qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq ichidagilar bir xil bo‘lishi hamda faqatgina kelib chiqishi, navi, sifati, po‘stlog‘ining rangi, mag‘zining rangi va o‘lchami mutlaqo bir xil bo‘lgan ertapishar va oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalardan iborat bo‘lishi kerak.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan yuza qismi butun turkum tarkibiga to‘liq mos kelishi kerak.

B. Qadoqlash

Erta pishar va oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar mahsulotni tegishli darajada himoya qilishni va zarur darajada havo aylanishini ta’minlaydigan usulda qadoqlanishi kerak

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza hamda mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Savdo tavsiflari yozilgan materiallar-dan, xususan, qog‘ozlardan yoki muhrlardan foydalanishga faqatgina ulardagi yozuvlar yoki yorliqlar xavfsiz bo‘lgan bo‘yoq yoki yelim yordamida bajarilgan taqdirdagina ruxsat etiladi.

Erta pishar kartoshkalarni uzoq masofaga tashish jarayonida mahsulotni yaxshiroq saqlash va himoya qilish maqsadida maxsus qadoqlash materiallaridan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

Qadoqlar har qanday yot moddalardan xoli bo‘lishi kerak.

VI. Tamg’alashga oid qoidalar

Har bir qadoqdagi[2] ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan holda, tashqaridan aniq ko‘rinadigan, oson o‘qiladigan va yuvilib ketmaydigan harflar bilan bevosita qadoqning o‘ziga bosilgan yoki qadoqning bog‘ichiga mustahkamlangan yorliqda ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Agar yorliqlar qadoq ichiga joylashtirilsa, tamg’alsh ma’lumotlari tashqaridan oson o‘qiladigan holatda bo‘lishi lozim.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri transport vositasiga yuklangan holda tashiladigan erta pishar va oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar uchun ushbu ma’lumotlar tovar hujjatlarida ko‘rsatilishi hamda transport vositasining ichki qismidagi ko‘zga yaqqol tashlanadigan joyga mahkamlab qo‘yilishi kerak.

A. Identifikatsiya qilish

Qadoqlovchi va/yoki jo'natuvchi/eksportchi:

Nomi va xaqiqiy manzili(masalan,ko’cha,shaxar,hudud,pochta indeksi hamda,agar kelib chiqish mamlakati bilan bir xil bolmasa,mamlakat nomi) yoki milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kodli belgi[3], agar bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat BMT YIEK ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo’lsa.

STANDARTLAR INSTITUTI #QPJ54QEYU4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B. Mahsulotning tavsifi

• “Erta pishar kartoshka”, “Yangi kartoshka” yoki shunga tenglashtirilgan nom, yoxud “Oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshka” agar qadoq tarkibi tashqaridan ko‘rinmaydigan bo‘lsa;

• **Navning nomi.**

[1] Ayrim mamlakatlarda ma’lum turdagi qadoqlash materiallaridan (masalan, torfdan) foydalanishga ruxsat etilmaydi.

[2] Ushbu tamg’alash talablari transport qadoqlari katta qutilar ichiga joylashtirilgan savdo qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, agar ushbu savdo qadoqlari dona holatda taqdim etilsa, ularga nisbatan qo‘llaniladi.

[3] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgi ishlatilgan taqdirda, ushbu kod bilan uzviy bog‘liq holda „qadoqlovchi yoki jo‘natuvchi“ (yoki shunga tenglashtirilgan qisqartma) ko‘rsatilishi kerak. Agar ushbu kodni tasdiqlagan mamlakat mahsulot kelib chiqqan davlat bo‘lmasa, koddan oldin o‘sha tasdiqlovchi mamlakatning ISO 3166 xalqaro kodi ko‘rsatilishi lozim.

• Zarur hollarda, belgilangan maksimal o‘lchamdan yuqori bo‘lgan erta pishar va oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan kartoshkalar uchun maxsus atama bilan nomlanishi.

• Zarur bo‘lganda mayda yoki shunga tenglashtirilgan boshqa atama bilan nomlanishi.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

Kelib chiqqan mamlakati[4] va ixtiyoriy ravishda — yetishtirilgan tuman, yoxud davlat, mintaqa yoki mahalliy joy nomi.

D. Tijorat tavsiflari

• O‘lchami — minimal o‘lchami ko‘rsatilib, yoniga „va undan yirik“ degan so‘zlar qo‘shiladi yoxud minimal va maksimal o‘lchamlari ko‘rsatiladi;

• Ixtiyoriy ko‘rsatkichlar: mag‘zining rangi (masalan: sariq yoki oq), po‘stlog‘ining rangi, kartoshka tugunakining shakli (dumaloq yoki uzunchoq) hamda pishish turi (masalan: yumshoq yoki qattiq/ezilmaydigan).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Qabul qilingan yili: 1961-yil
Oxirgi qayta ko‘rib chiqilgan yili: 2011-yil
Standartning umumiy tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan yili (Standart Layout): 2017-yil
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Meva va sabzavotlar bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi doirasida ushbu standartning amaliyotda ishlatilishi yuzasidan rasmli tushuntirish risolasi nashr etilgan. Ushbu nashrni OECD kitob do‘konining www.oecdbookshop.org veb-saytidan sotib olish mumkin.

[4]To‘liq yoki umumqabul qilingan nomi ko‘rsatilishi kerak

STANDARTLAR INSTITUTI #QPJ54QEYU4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Nashr etilgan sana: 2018-yil 8-iyun